

*Sh.Nurmuhammadov, NamDU*

Akademik A.A.Shcherba ta'kidlaganidek, ...“o'z tilingni boshqa tillarga qiyoslaganingdagina, uning qandayligini anglay boshlaysan”<sup>1</sup> hamda bu orqali har ikkala tilning ichki imkoniyatlari va ulardan unumli foydalana olish mumkinligi namoyon bo'ladi. Shu bois epik uslubning komponenti bo'lgan badiiy tasvir vositalarini boshqa bir tilda qayta yaratish muammosini ijobiy xal etish, tarjimondan, avvalo har ikkala tilni chuqur bilishni, qolaversa, tarix va etnografiyaga oid dunyoviy bilimga ega bo'lishni taqozo qiladi, nainki uning mahorati o'z tilida boshqa bir millatning o'tmishidagi milliy urf-odatlarini, etnik xususiyatlarini, madaniy-ma'naviy hayotini, mentalitetini ifodalovchi lingvostilistik vositalarni qayta tiklash bilan belgilanadi.

Milliy kolorit muammosini o'rganish tarjimashunoslik fanida shubhasiz, katta ahamiyatga ega. Chunki muayyan bir asarning milliy o'ziga xosligini, undagi narsalarni tushunish tarzini, milliy ruhiyatini chuqur anglamasdan turib, uni to'g'ri tarjima qilish mushkul masaladir. Ushbu soxada deyarli barcha tarjimashunos olimlar u yoki, bu darajada fikr yuritishgan. Aytish joizki, tarjima jarayonida asarning o'ziga xos xususiyatlarini boshqa tilda aks ettirish bilan bog'liq bo'lgan bir qator qiyinchiliklar mavjud. Chunki muayyan milliy adabiyotning namunasi sifatida har qanday asar, avvalambor, keng va teran ko'lamdagi milliylikka ega bo'ladi. Mazkur xususiyatning teranligi tarjimada saqlab qolinishi va ikkinchi til kitobxoniga yetkazilishi zarur. Bunga erishish uchun, avvalambor, mazkur matnni tashkil qiluvchi milliy so'z-realiyalarni to'g'ri ifodalash zarurdir. Bu masalani hal qilish esa ularni asliyat tilida ko'rib chiqishni taqazo qiladi. Shu o'rinda biz o'z ishimizda “Alpomish” dostonining nemischa tarjimasida uchrovchi realiyalar tarjimasida xususida fikr yuritmoqchimiz.

<sup>1</sup> Shcherba A. A. Yazqkovaya sistema i rechevaya deyatelg'nostg'. -Leningrad: Nauka, 1994.

“Alpomish” dostonida o‘zbek xalqining tarixiy davrlariga oid hayoti, urf-odati, an‘ana va marosimlarining badiiy tasvirida qo‘llanilgan milliy so‘zlar-realiyalar xar qanday kitobxonni o‘ziga jalb qiladi. Asarni o‘qib chiqib, uni chuqur taxlil qila olgan nemis tarjimoni Karl Rayxl sharqona tarixiy hayot tarzini, koloritini o‘z xalqiga tarjima orqali ko‘rsatib berishga xarakat qilgan.

“Alpomish” dostonidagi realiyalar-milliy so‘zlarni quydagi turlarga ajratish mumkin<sup>2</sup>:

1. Amaldorlar va boylar darajasini bildiruvchi tarixiy so‘zlar.

Ular milliylikni, tarixiy davr va makonni bo‘rttirib ko‘rsatishda muxim rolg‘ o‘ynaydi. M; Bay- reicher Mann (usb. boy)- boy odam (uzb.boy).

2. Qurol-yarog‘ nomlari. Doston qaxramonlik xarakatida bo‘lgani uchun bu asarda botirlik xarakterini ifodalovchi so‘zlar ku‘ bulib, ular aloxida o‘rin tutadi. Dostonda qurol-yaarog‘ turlari va xarb bilan bog‘liq bo‘lgan milliy so‘zlar xam uchraydi. Nayza –der Speer, sari yoy –der Bogen, Qilich-das Schwert, isfixon –der Isfahanerlinge –(isfixon qilichi).

3. Milliy musiqiy asboblari nomlarini anglatuvchi so‘zlar.

Dostondagi musiqa asboblari yorqin milliy tusga ega bo‘lib, faqatgina ularni transkriptsiya xamda izoh bilangina nemis tilida qayta tiklash mumkin: Surnay-Blasinstrument; eine Art Schalmei – puflab chalinadigan asbob, nayning bir turi.

4. Milliy kiyim-boshni anglatuvchi so‘zlar.

Nimcha-Gewicht (sa 400 g)-og‘irligi (400gr); Shakmon –eine Art Kaftan, Überwurf-chakmonning bir turi, yelkaga tashlab yuriladigan yengsiz kiyim (400gr).

5. Milliy oziq ovqat bilan bog‘liq so‘zlar.

Ko‘rpacha –wattierte Decke, Stepdecke- astarli choyshab, qavilgan ko‘r‘a.

6. Milliy ozik ovqat bilan bog‘liq so‘zlar.

Airan-mit Wasser verdüntes Getränk aus sauer Milch - qattiqni suv bilan aralastirib tayyorlangan suyuq ichimlik.

7. Mifalogik so‘zlar.

Diw-Dämoon, Fabelwesen- iblis, mifik obraz.

---

<sup>2</sup> Tursunov A. Realiyalar tarjimasida.Makola. Til va tarjima muammolari. -№2. –Namangan 2009,  
[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

8. O'lchov birligiga oid suzlar.

Boshqa millatga mansub xalqlar adabiyoti tarjimon uchun xamisha turli muammolar va murakkabliklar tug'dirib kelgan. Chunki boshqa xalq tiliga xos bo'lgan milliy o'lchov birliklari, o'zga bir xalqning tiliga aynan mos kelishi mushkul. Gaz-Längenmass (sa 70 cm)-uzunlik o'lchovi (70 sm ); Tosh – Längenmass (ca. 8,5cm) uzunlik o'lchov birligi (8.5km)

9. Shevaga xos so'zlar. Yanga-Frau des ältesten Bruders; mit der Braut befreundete, verheiratete Frau, die nach der Hochzeit beim Brautpaar bleibt-akaning xotini, to'ydan keyin kelin-kuyov bilan birga bo'ladigan, turmushga chiqqan ayol.

10. Xalq og'zaki ijodiga oid so'zlar.

O'lan –Streitlied; abwechselnd von Männer und Frauen gesungen; auch : Lied in kasachischer Sprache –tortishuv qushigi, ayollar va erkaklar o'rtasida aytiladi, qozoq tilida xam bor.

11. Joy nomlariga oid so'zlar.

To'y-Fest (Hochzeitsfest, Geburtsfest usw)- bayram (tuy bayrami, tug'ilgan kun bayrami)va boshqalar.

Kuzatishlar shuni ko'rsatmokedaki, olmon tarjimoni K. Rayxl "Alpomish" dostonidagi xos so'zlar tarjimasida quyidagi usullardan foydalangan.

1. Transliteratsiya, izohlash.

Karnay –Blasinstrument; lange gerade Trompete aus Kupfer–puflab chalinadigan asbob, misdan yasalgan uzun, to'g'ri turuba, shakmon –eine Art Kaftan, Überwurf–chakmonning bir turi, yelkaga tashlab yuriladigan yengsiz kiyim (400gr) , to'shak-Steppdecke (zum Sitzen, Liegen und Schlafen-qavilgan ko'rpa (yotish, o'tirish uchun), to'y –Fest (Hochzeitsfest, Geburtsfest usw.)-bayram(to'y bayrami, tug'ulish bayrami), to'yxona –Festsaal –to'y zali, uloq –Reiters'iel, bei dem es darauf ankommt, einen toten Ziegenbock oder ein totes Zickelein dem Kontrahenten zu entreissen (usb .auch „ko'kari") ot o'yini, bunda o'ldirilgan yechki yoki serkani o'rtaga tashlab o'rtadan olib chisiladi (o'zb. "ko''kari" xam deyiladi).

2. Olmon tilidagi muqobil variantlarni tanlash.

To'ra –der Herr. "To'ra"so'zining "O'zbek tilining izoxli lug'ati"da to'rtta

ma'nosi keltirilgan bo'lib, shundan uchasi "Nemis tilining izoxli lug'ati"dagi "der Herr" so'zining uchta ma'nosiga izchilligi jixatidan xam to'la muvofiq keladi. Masalan: To'ra 1) yuqori tabaqaga mansub kishi, zodagon, oqsuyak, aristokrat, 2) tar. Xonlar davrida va chor Turkistonda katta amaldor, xokim, 3) xurmat yuzasidan yoki ulug'lab kishilarning nomiga, unvoniga, mansabiga ko'shib ishlatiladigan so'z, 4) ko'chma. Rasmiyat'arast, rasmiyatchi, byurokrat, Nemischada "Der Herr" - 1) Standestift für Adlige nach Fürsten und Grafen. (Graf va knyazlardan keyin turadigan oqsuyaklar uchun tabaqaviy unvon), 2) (allg) Besitzer, Gebieter, Herrscher (xo'jayin, xukumdor, xoqon), 3) Vorsetzter (res'ektvolle Anrede für Männer) boshliq, janob (erkaklarga xurmat yuzasidan murojaat)

3. So'zma so'z tarjima qilish.

Nayza—der S'eer, sari yoy—der Bogen, Qilich—das Schwert, isfixon—der Isfahanerklinge (isfixon qilichi) deb o'girilgan. Tarjimon isfaxon so'zinig ma'nosini to'g'ri anglab, uni Isfahanerklinge deb to'g'ri so'z tanlagan.

Karl Rayxl doston tarjimasida xos so'zlarni. asosan, tranlitratsiya usulidan foydalangan xolda tarjima kilib, katta yutuqqa erishgan.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, epik asarlardagi milliy kolorit va mahalliy o'ziga xoslikni tarjimada aks ettirish uchun, avvalambor, asardagi ijtimoiy-milliy muhitni, ruhiy holatni, ijtimoiy davr birliklarini bilgan holda chuqur falsafiy mushohadaga ega bo'lish zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1, Reichl K. Alpomisch. Das usbekische Heldenepos. – Wiesbaden: Verlag Otto Harrassovitz. 2001.
2. Shcherba A. A. Yazikovaya sistema i rechevaya deyatelnost. – Leningrad: 1994.
3. Tursunov A. Realiyalar tarjimasida. Makola. Til va tarjima muammolari. №2. – Namangan: 2009,